

O‘ZBEKISTONDA MEVA- SABZAVOTCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

F.M.Asilova

TOSH DAU universiteti assistenti

Shokirova Shukrona O‘rinboyevna

TOSH DAU universiteti talabasi

Respublikada ishlab chiqarishni kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Meva-sabzavotchilikni intensiv rivojlantirishga doir loyihalarni amalga oshirish uchun ekin maydonlari sezilarli ravishda kengaytirildi, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo‘yicha quvvatlar ishga tushirildi, moliyaviy resurslar, jumladan, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari faol ravishda jalb etilmoqda. Shu bilan birga xorijiy meva-sabzavot mahsulotlari bozorlaridagi yuqori darajadagi raqobat agrotexnikaning hamda ishlab chiqarish va mahsulot etkazib berish jarayonlarini boshqarishning zamonaviy uslublarini jadal ravishda joriy etishni talab qilmoqda.

Ma‘lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo‘nalishlar sifatida katta e‘tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi.

Xususan, so‘nggi yillarda bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Bularga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5388 va 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853 sonli farmonlari hamda 2018 yil 17 oktyabrdagi “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3978, 2019 yil 14 martdagi “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4239 qarorlarini keltirish mumkin.

O‘zbekiston iqtisodiyotida meva-sabzavotchilik tarmog‘ining o‘rni.

Umuman olganda, tarmoqda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar quyidagi iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni hal qilish imkonini yaratmoqda:

iqtisodiy masalada – meva-sabzavotchilik jami ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 32,2 foizini (*mamlakat yalpi ichki mahsulotining 8,7 foizi*) tashkil etgani holda qishloq joylarida aholining asosiy daromadlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning qator tarmoqlarini rivojlanishiga o‘zining bevosita ta‘sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu tarmoq mamlakat qishloq xo‘jaligi eksportida asosiy o‘rinlarni egallaydi;


ijtimoiy masalada – meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish samaradorligi, nafaqat qishloq aholisining turmush darajasiga, balki mamlakat barcha aholisining ijtimoiy farovonligini ham oshirishga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Yakuniy natijada ushbu islohotlardan pirovard maqsad mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlanib, yangi O‘zbekiston rivojlanishining barcha jarayonlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy natijalarida yaqqol namoyon bo‘ladi hamda aholi turmush darajasining oshib borishini o‘zida aks ettiradi.

Shu bilan bir qatorda “... sohada ayniqsa, meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlari tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi, ilmiy yondashuvning etarli emasligi tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 gektar maydonda etishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong‘oqdan 5 baravar ko‘p daromad olish imkoniyati mavjud”.

Shuningdek, ushbu mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash hamda eksport qilishda mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilyapti, deb bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: “Bugungi kunda yurtimizda etishtirilayotgan meva-sabzavotning atigi 15 foizi qayta ishlanib, 8 foizi eksport qilinmoqda, xolos. Ayniqsa, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida bu ko‘rsatkichlar hamon pastligicha qolmoqda. Joriy yilda 860 ming tonna yoki 620 million dollarlik meva-sabzavot eksport qilingani bizning imkoniyat va salohiyatimizga mosmi? Yo‘q, albatta! Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida bog‘lar va tokzorlarga ishlov beradigan, sabzavot va kartoshka urug‘larini ekadigan va yig‘ishtirib oladigan texnikalar mavjud emas. Fermer, dehqon xo‘jaliklariga yoqilg‘i-moylash mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar, urug‘lik etkazib berish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash ishlari talab darajasida tashkil etilmagan”.

Meva-sabzavotchilik mahsulotlarini etishtirish to‘g‘risida ma‘lumot. (1.1, 1.2, 1.3, 1.4, 1.5-rasmlar).



Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, meva va rezavorlar etishtirish hajmi 2023 yilning mos davriga nisbatan 2024 yilda 4,1 foizga oshgan.




Hududlar bo'yicha sabzavotlar etishtirish.

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Andijon viloyati (15,3 %) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Samarqand (13,7 %), Farg‘ona (11,4 %), Surxondaryo (10,1 %) va Toshkent (10,0 %) viloyatlarida qayd etildi. Past ko‘rsatkichlar Sirdaryo viloyati (2,6 %) Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatida (2,9 %) kuzatildi. 2023- yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Farg‘ona (105,5 %), Toshkent (104,8 %), Qashqadaryo (104,8 %), Navoiy (104,6 %) viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (104,5 %), Jizzax (104,1 %), Namangan (104,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda etishtirilgan poliz ekinlari 2 553,5 ming tonnani, yoki 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 105,5 % ni tashkil etdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, fermer xo‘jaliklarida 8,0 %, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,9 % va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 8,0 % o‘shish qayd etildi.

MEVA VA REZAVORLAR



2024- yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda etishtirilgan meva va rezavorlar **3121,7** ming tonnani, yoki 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda **104,1 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, fermer xo‘jaliklarida **5,9 %**, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida **3,2 %** o‘shish qayd etildi. Aksincha qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **4,9 %** kamayish kuzatildi.

Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmida hududlar bo‘yicha eng katta ulush Andijon (**22,3 %**), Farg‘ona (**12,9 %**), Samarqand (**12,0 %**), Namangan (**11,7 %**)

va Buxoro (9,7 %) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga, meva va rezavorlar umumiy hajmida eng kam ulush, Sirdaryo viloyatida (1,5 %) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (2,2 %) kuzatildi.

Ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda yuqori o‘sish sur‘atlari Qashqadaryo (107,3 %), Namangan (105,8 %) viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasida (105,8 %), Navoiy (105,1 %), Samarqand (104,8 %) Sirdaryo (104,6 %), Farg‘ona (104,5 %) Jizzax viloyatida (104,4 %) qayd etildi.

Hulosa qilib aytsak, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini nobud qilmay qayta ishlash, mavsumiyligini uzaytirish ham foydalanilmagan imkoniyatlardan biridir. Yangiligicha saqlangan ho‘l mevalar assortimenti mo‘lligi bozorlarda shu turdagi mahsulotlarni tannarxining har yili qishki-bahorgi mavsumda sun‘iy ravishda ko‘tarilib ketishini oldini oladi hamda aholi ijtimoiy himoyasiga ijobiy ta‘sir etib, turdosh mahsulotlar qishki mavsumdagi importiga hojat qolmaydi. Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning assortiment tuzilmasini takomillashtirishning eng yuqori omillaridan biri ozuqaviy qo‘shimchalarni mintaqamizda mavjud tabiiy xom ashyo zaxiralarini qayta ishlash asosida keng assortimentini tayyorlashni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaev R., Utaganov X. Bog‘-tokzorlar hosildorligi va hosil sifatini oshirish//O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. -2012 y. -№6. – S.8-9
2. Abdullaev R., Razzakov M., Nabiev O‘. Bog‘ va tokzorlar yumushlari// O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. -2009 y. -№6. – S. 6-7.
3. Dodaev Q.O., Nurmuxamedov X.S., Choriev A.J. Quritish, sovutish texnikasi va texnologiyasi. KHK-lari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2010. 126-b.
4. Dodaev Q.O., Choriev A.J. Oziq-ovqat ishlab chiqarish va konservalash kiməsi. KHK-lari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2010. 144-b.
5. Jo‘raev R.J., Islamov X. .|| Meva va sabzavotlarni saqlash va ularga dastlabki ishlov berish|| (ma‘ruza matni). Toshkent-2003.
6. Загибалов А.Ф. ва бошқалар "Технология консервирования плодов и овощей и контрол качества". М.ВО "Агропромиздат", 1992 год
7. Мирзаев М., Раззаков М., Набиев Ў. Боғ ва токзорлардаги долзарб тадбирлар// Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -2009 й. -№5. – С. 4-5.
8. Самсонова А.Н., Ушева В.Б. Фруктовые и овощные соки. -М.: Пищевая промышленность. 1976.
9. Трисвятский А.А., Лесик Б.В., Курдина В.Н. —Хранения и технология сельскохозяйственник продуктов|| М. Колос.1991 й.210-213 б.